

HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA KURSANTLARNI TAYYORLASHDA PROFESSOR-O'QITUVCHILAR FAOLIYATINING XOS-XUSUSIYATLARI

Yunusov Zoxid Mamaraximovich
PhD, dotsent, O'R QK Akademiyasi dotsenti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada harbiy mutaxassislarini harbiy ta'limga muhitiga o'qitish jarayoniga kirishib ketishida ta'limga muassasasi professor-o'qituvchilarning roli to'g'risida fikr yuritilgan. Kursantlarning harbiy ta'limga muassasida o'quv jarayoniga ko'nikishi bo'yicha turli olimlarning fikr-mulohazalari va qarashlari bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *kasbiy faoliyat, kursantlarning o'quv jarayoni, harbiy ta'limga tizimi.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2023-yil 29-sentabrda “O'qituvchilar va murabbiylar kuni”ga bag'ishlangan tantanali yig'ilishdagi tabrik so'zida “... *Bugun biz mamlakatimizda millati, til, dinidan qat'i nazar, har bir inson o'z qobiliyati va iste'dodini, bilim va tajribasini ro'yobga chiqara oladigan ijtimoiy davlat barpo etmoqdamiz. Shu maqsadda barcha kuch va imkoniyatlarimizni yoshlarimizning intellektual va jismoniy kamoloti, ularning sifatlari ta'limga olib, hayotda munosib o'rinn egallashlari uchun safarbar etmoqdamiz. ...*” deb fikr bildirgan [1].

Darhaqiqat, bugungi kunda O'zbekistonda amalgalashishiga oshirilayotgan tub islohotlar, jumladan, ta'limga va kadrlar tayyorlash tizimini hozirgi zamonda talablari darajasiga yetkazish, mamlakatimiz mudofaa salohiyatini oshirish va yurtimiz sarhadlarini, xalqimizning tinch, farovon hayotini tashqi tajovuzlardan ishonchli himoya qilishga qodir zamonaqiy Qurollari Kuchlarni qurishga qaratilgan.

Dunyoda bo'lib o'tayotgan urushlar, qurolli mojarolar mazkur mamlakatlarning harbiy tuzilmalari shaxsiy tarkibning harbiy-kasbiy tayyorgarligi va jangovar shayligiga jiddiy yondashuvni, yani harbiy-kasbiy tayyorgarlikni so'ngi bo'lib o'tayotgan jangovar to'qnashuvlar tajribasini, qo'llanilayotgan taktik harakatlarni o'rganish, tahlil qilish, xulosalar asosida o'quv jarayoniga kerakli o'zgartirishlarni kiritish orqali takomillashtirish borishni taqazo etmoqda.

Respublikamizning tinchligi va osoyishtaligiga bo'lgan har qanday tahdidlarning oldini olishda yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash tizimini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha bir qator ishlar olib borilmoqda.

Oliy harbiy ta'limga muassasasining kursanti bo'lajak ofitser sifatida Qurollari Kuchlarda eng muhim ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatga ega shaxsdir. Vatan himoyachisi va harbiy faoliyat subyekti sifatida u harbiy jamoaning muhim a'zosi hisoblanadi. Kursantning fikrlari, histuyg'ulari va harakatlari, mulohaza hamda umidlari ko'p hollarda xizmatdoshlarining munosabatlari bog'liq bo'ladi. Yangi harbiy tuzilmaga kirib kelayotgan yosh fuqarolar qisqa vaqt ichida ijtimoiy-harbiy muhitga, kasbiy faoliyatga (jangovar tayyorgarlik, jangovar shaylik, jangovar trevoga) va shu kabilarga moslashtirilishi lozim [3; 14 b.].

Kursantlarni yuqorida qayd etilgan vaziyatlarga moslashishi uchun albatta ushbu jarayonga adaptasiyasining to'g'ri tashkil etilishi juda muhimdir.

Kursantlarning o'quv jarayonga adaptasiyasi harbiy pedagogika va psixologiya sohasida rivojlangan mamlakatlarda yetarlicha o'rganilgan. Oliy harbiy ta'limga muassasalari sharoitida

kursantlarning adaptasiya jarayoni muammolarining o'rganilishini N.A.Xamidulina, Ye.G.Chernikova, N.F.Talizina, N.F.Maslov, V.V.Guseva, M.S.Chvanova, I.V.Kravs, V.P.Bespalko, N.V.Volodina va o'zbek olimlaridan Y.S.Axmadiyev, J.X.Axmetov, U.N.Nishonaliyev, N.Sayidaxmedov, U.Tolipov, Sh.Yunusova, Sh.Sharipov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. Olib borilgan tadqiqotlarda muammo umumiyligi an'anaviy uslublarda tadqiq etilgan. Harbiy pedagogikada adaptasiya muammolari tadqiqotchilari ko'pincha "kasbiy adaptasiya" tushunchasini ishlatalilar. P.I. Obrazsov va A.I. Kozachokning ta'kidlashicha, kasbiy adaptasiya - kasbiy nuqtai nazardan kursantlar va o'qituvchilarning faol o'zaro munosabatlari sharoitida kursantlarning kasbda o'z o'rmini topishi va o'zini sohada ifoda etishiga imkon yaratib, kelajakdagi harbiy mutaxassisning muhim kasbiy sifatlarini ketma-ketlikda shakkantirish jarayonini o'zida aks ettiradi.

Oliy ta'limga muassasalar o'quv-tarbiya jarayonining bir qator o'ziga xosliklari talabalarning moslashishiga to'sqinlik qiladi, buni ayniqsa birinchi bosqich talabalarida yaqqol kuzatish mumkin bo'ladi, deb D. Muqimova o'z tadqiqotida fikr bildirgan [4; 58-60 b.].


Tadqiqotchilar OHTMdagi o'qitish sharoitlariga fuqarolikdan kelgan yoshlar va harbiy xizmatdan o'qishga kirgan kursantlarni sobiq "Suvorovchi" va "Kadetlar" bilan taqqoslaganda keyingilarning adaptatsiyasi ancha muvaffaqiyatli bo'lgani aniqlashgan. Chunki fuqarolikdan kelgan yoshlar o'qishga ko'nikmasi bo'lgani bilan xizmat sharoitlariga moslashishi lozim bo'lsa, harbiy xizmatdan kelganlarga o'qish sharoitlariga moslashishi qiyinchilik tug'dirgan. Sobiq "Suvorovchi" va "Kadetlar" esa OHTMdagi kasbiy faoliyatga tezda moslashib ketishgan. Demak, ularning ta'limga jarayonida orttirgan o'qish va harbiy xizmat ko'nikmalari OHTMdagi o'qish jarayonidagi moslashuvni 40-50 foizgacha yengillashtiradi, deb aytish mumkin [3; 19-b].

Harbiy ta'limga muassasalarida kursantlarning yangi ta'limga sharoitlariga moslashish jarayonini o'rganishida A.V. Mejuyev "Harbiy ta'limga muassasalar muhitida kursantlarning faoliyatga tayyorligi" tushunchasini kiritdi hamda unda ilk bosqichdagi kursantlarni harbiy-kasbiy muhit sharoitlari va talablariga moslashtirish jarayonida ijtimoiy-psixologik va pedagogik xususiyatlarga ega bo'lgan qiyinchiliklarni keltiradi. U adaptiv tayyorgarlikni kursantning jamiyat va shaxslar bilan munosabatlarini samarali tashkil etish, ta'limga oluvchilarning ijtimoiy, ta'limga boshqa turdagagi faoliyatining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan umumqabul qilingan me'yorlar va qoidalar asosida bilim yurtining ta'limga muhiti bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish qobiliyati sifatida belgilaydi [3; 22 b.].

Kasbiy faoliyat haqida fikr yuritilar ekan, turli kasb sohalarining o'ziga xos xususiyatlari va talablari bo'lishini ta'kidlash muhim. Jumladan, f.f.n., dotsent D.A. Xoliqovaning fikriga ko'ra, odam faoliyat orqali tabiatga, narsalarga, boshqa kishilarga tasir ko'rsatadi. Faoliyatda u o'z ichki xususiyatlarini ishga solib va namoyon qilib, narsalarga nisbatan subyekt sifatida, odamlarga nisbatan esa shaxs sifatida gavdalananadi [2; 180-b.].

OHTMdagi birinchi bosqich kursantlarining kasbiy faoliyatga adaptatsiyasi bevosita bir qator omillarga bog'liqligi bilan tavsiflanadi [3; 23-b.].

**Kasbiy yo'naltirish jarayonida kursantlarning
diagnostika mezonlari tizimini shakllantirish**



Bo'lajak harbiy mutaxassisni tayyorlash jarayoni harbiy-kasbiy tayyorgarlikning keng ko'lamli mahoratini, harbiy-texnik vositalarni qo'llash va ishlatish usullarini o'zlashtirish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, xizmat hujjatlarini ishlab chiqish va rasmiylashtirish hamda o'quv me'yorlarini bajarishlarni o'z ichiga oladi.

Harbiy ta'lim tizimida davom etayotgan islohotlar jarayonida ijodiy fikrlaydigan mustaqil va noodatiy harakat qilish qobiliyatiga ega mutaxassislarni tayyorlash muammolari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammo O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Oliy harbiy ta'lim muassasalarining keljakda ofitser kadrlarni tayyorlaydigan o'qituvchilar uchun juda dolzarbdir. Shuning uchun kursantlarning o'quv jarayoniga jalg etiladigan harbiy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining kursantlar adaptasiyasini to'g'ri yo'naltirishdagi o'rni juda muhim.

Ta'limning dastlabki bosqichida (1-2 bosqichlarda) fuqarolik oliy o'quv yurtlari talabalari kabi kursantlar ham harbiy bilim yurtining shartlariga moslashadi, ammo harbiy kadrlarni harbiy oliy o'quv yurtlarida o'qitish jarayoniga moslashtirish qiyinligi, bu davrda kursantlar o'qish bilan bir vaqtida harbiy xizmat majburiyatlarini ham bajarishlari kerakligi bilan tavsiflanadi. Aynan shu davrda harbiy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarini kursantlarni yangi shart-sharoitlarga moslashishida, o'zlariga ishonch va o'qishga bo'lgan qiziqishlarini ortirishida qo'llab-quvvatlashlari lozim. Ayrim hollarda qoloq kursantlarni a'lo bahoga o'qiydigan kursantlarga biriktirish ("otaliq"qa olishi) bo'yicha jamoada muhokama tashkil qilish kerak bo'lgan mavzular paydo bo'lishi mumkin. Shuningdek, biron-bir o'qituvchining kursantlarga nisbatan salbiy hissiyotni namoyon bo'lishini o'z vaqtida oldini olish muhimdir, chunki bu kursanda nafaqat uning faniga, balki harbiy xizmatga bo'lgan munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, professor-o'qituvchilar kursantlarga individual vazifalar va topshiriqlarni ularning layoqati, o'ziga xos muayyan xarakterlarni shakllantirish uchun axloqiy va jangovar sifatlari, intizomlilik, mas'uliyat va tashkilotchilik kabi shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda tanlashi kerak. Individual yondashuv orqali kursantlarda o'ziga ishonch va qat'iyatni rivojlantirish, vazifa va topshiriqlarni bajarilishida qat'iyatlik hamda jasorat ko'rsatishga undash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M. Mirziyoyevning 2023-yil 29-sentabrdagi “O'qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag'ishlangan tabrigi. - Toshkent: “Vatanparvar” nashriyoti, 2023.
2. Холикова Д.А. Ҳарбий дидактика ва психология асослари. Дарслик. - Т.: O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019. - 320 b.
3. Yunusov Z.M. Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining professional tayyorgarligini didaktik modellashtirish (favqulodda vaziyatlar misolida):/dis.... Harbiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) / Z.M. Yunusov. -Т.: 2023. - 114 b.
4. Muqumova, D.I. Talabalarni o'quv jarayoniga moslashishining tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish:/dis.... Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) / D.I. Muqumova. -Т.: 2018. - 146 b.